

PAPER

ARAB TILIDA SO‘ROQ IFODASI: «HAL» VA HAMZA O‘RTASIDAGI ASOSIY FARQLAR

Fayziyev Shamsuddin Sadriddinovich ^{1,*}

¹Oriental universiteti o‘qituvchisi

* shamsuddin99@icloud.com

Abstract

Ushbu maqolada arab tilidagi istifhom vositalarining nazariy asoslari hamda ularning qo‘llanish mexanizmi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda istifhom harflari sanalmish “hal” va hamzaning sintaktik pozitsiyasi, ularga qo‘yilgan e‘robiy talablar, fe‘liy va ismiy gaplar bilan munosabati hamda semantik imkoniyatlari qiyosiy usulda o‘rganiladi. Shuningdek, hamzaning tasviya, inkor, taqrir, ta‘ajub va tanbeh ma‘nolaridagi funksional yuklamasi misollar orqali yoritiladi. Ilmiy manbalarga tayangan holda istifhom harflarining umumiy va xos xususiyatlari tizimlashtirilib, ularning amaliy nutq hamda matn tahlilidagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Key words: istifhom, hal, hamzatul istifhom, tasdiq, tasavvur, tasviya hamzasi, nahv, balog‘at, so‘roq harflari, semantik tafovut.

KIRISH

Arab tilida istifhom uslubi nahv, balog‘at kabi ilmlarining eng nozik va chuqur masalalaridan biri sanaladi. Xususan, “hal” va hamzatul-istifhom (ĥ) o‘rtasidagi farqlar nafaqat grammatik jihatdan, balki ma‘no, uslub va dalolat nuqtai nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ushbu ikki istifhom harfining tasdiq va tasavvur ma‘nolaridagi qo‘llanishi, ularning nahviy cheklovlari, balog‘iy vazifalari hamda همزة التوسويّة kabi masalalar ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Nahv maktabida bu masalaga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, Ibn Hishom o‘zining

mashhur asari “Mug‘nil labib”da, Murodiy “Al-Jana ad-Daniy” kitobida, Molaqiy esa “Rasf al-Mabaniy”da istifhom harflarining ma‘nodagi tafovutlarini, xususan, “hal”dan keyin nafiyy yuklamalari kelmasligi, hamzaning esa kengroq qo‘llanish doirasiga egaligini mufassal bayon qilganlar. Ushbu asarlar istifhomni tasdiq (التصديق) va tasavvur (التصور) jihatlariga ajratib, har birining sintaktik va daloliy xususiyatlarini chuqur tahlil etadi. Mazkur maqolada ana shu manbalar asosida “hal” va hamzaning o‘zaro farqlari tizimli ravishda ko‘rib chiqilib, ularning nahviy va balog‘iy xususiyatlari dalillar bilan yoritiladi. Bu esa

arab tilida istifhom uslubini chuqurroq anglash va amaliy nutqda to'g'ri qo'llashga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, arab tilida مَن – “kim?”, مَا – “nima?”, مَا – “qachon?”, أَيْنَ – “qayerda?”, كَيْفَ – “qan-cha?” va أَيْ – “qaysi?” kabi so'roq olmoshlari ism so'z turkumiga kiradi. Yakka o'zi mustaqil ma'no anglatmaydigan harf so'z turkumiga لَ bilan أَ ni kiritishimiz mumkin. Ikkisi ham istifhom harfi bo'lib, ular ishtirok etgan gap o'zbek tilida doim «...mi?» tarzida tarjima qilinadi. Biroq لَ bilan أَ o'rtasida nahviy va balog'iy farqlar mavjud:

1-farq: لَ — faqatgina «tasdiq» uchun ishlatiladi, أَ esa «tasdiq» uchun ham, «tasavvur» uchun ham ishlatilishi mumkin. Bu ular o'rtasidagi eng katta va asosiy farqdir. Bu farqni tushunish biroz izoh talab qiladi. «Tasdiq» (التصديق) — hukmi bor ma'no, boshqacha aytganda jumladan tushuniladigan hukm. Masalan: «Muhammad tunning yarmida keldi» degan gapdan «Muhammadning muayyan vaqtda kelgani» tushuniladi. Mana shu tushunilayotgan hukm yoxud ma'no «tasdiq» deyiladi. «Tasavvur» (التصور) — hukmdan xoli ma'no, boshqacha aytganda jumla bo'lmagan so'z yoxud birikmalardagi ma'no. Masalan: «Muhammad» so'zidagi yoki «tun yarmi» birikmasidagi ma'no tasavvurdir. Bizga ba'zan shaxslar yoxud narsalar ma'lum, biroq ularning hukmi majhul bo'ladi. Ba'zida hukmni bilamiz-u uning kimga yoki nimaga nisbat berilishini bilmaymiz. Mana shunda savollar ikkiga ajraladi: «tasdiq» (hukm) uchun beriladigan savollar va «tasavvur» (hukmdan xoli ma'no) uchun beriladigan savollar. Masalan: «Muhammad keldimi?» deganda Muhammadga tegishli hukmni so'roq ostiga olgan bo'lamiz. «Muhammad keldimi yoki ukasi?» deganimizda esa kelgan aynan kim ekani haqida so'rayotgan bo'lamiz.

Quyida «tasdiq» uchun berilgan savollarga diqqat qiling: «Muhammad keldimi?» — جَاءَ لَ — «Ertaga ro'za tutasanmi?» — زَعَدَ لَ تَصُومَ لَ — «Turib o'qisinmi?» — وَاقِفًا؟ يَ قُرَأَ لَ — «O'rganish uchun keldingmi?» — لَ لَتَعَلَّمَ؟ حُضِرَ لَ. Shu va shu kabi boshqa gaplarda لَ ning o'rniga أَ ni ishlatish mumkin.

Endi «tasavvur» uchun yo'naltirilgan quyidagi

savollarga e'tibor bering: «Muhammad keldimi yoki do'sti?» — أَ جَاءَ أَمَحَمَدُ — «Ertaga ro'za tutasanmi yoki indinga?» — بَعْدَ أَمَ تَصُومُ أَغَدًا — «Turib o'qisinmi yoki o'tirib?» — يَ قُرَأَ أَوَاقِفًا — «O'rganish uchun keldingmi yoki tijorat uchun?» — لَ لَتَجَارَ؟ أَمَ حُضِرَتِ أَلِلَتَعَلَّمَ؟ — Shu va shu kabi boshqa so'roq gaplarda أَ ning o'rniga لَ ni ishlatish mumkin emas.

2-farq: لَ — faqat musbat gaplarda ishlatiladi, أَ esa ham musbat, ham manfiy gaplarda qo'llaniladi. Masalan: «Safar qilasanmi?» (تَسَافِرُ؟ لَ) jumlasini أَ deb aytish mumkin. Biroq أَ لَا «Safar qilmaysanmi?» (تَسَافِرُ؟ لَ لَا) jumlasini لَ deb aytish mumkin emas.

Biroq 2-farqni yangilash tushunibsiz. Gap لَ dan keyingi jumlaning alohida o'zi haqida ketyapti. Masalan, siz keltirgan oyatdagi لَ ni olib tashlasak, jumla musbat bo'ladimi?! Ha, albatta. Demak, bu oyatda ham لَ asli musbat jumla tarkibiga kirgan. Biroq أَ لَا jumlasidan hamzani olib tashlasangiz, jumla manfiyligicha qolaveradi: أَ لَا جَاءَ مَا.

Demak 2-farqda aytilgan gapning ma'nosi shuki, لَ dan keyin nafiylar yuklamalari (لَا، لَمْ، لَمْ، لَمْ) bilan boshlangan gap kelmaydi! Bu mening emas, nahv imomlarining gapi («Mug'nil labib»ga murojaat qiling). Ular Allohning Kalomida hammamizdan hofizroq bo'lishgan.

3-farq: لَ dan keyingi muzore' fe'li faqat kelasi zamonda bo'ladi, أَ dan keyingisi esa ba'zan kelasi, ba'zan hozirgi zamonda bo'ladi. Masalan: «Ketasanmi?» demoqchi bo'lsak, لَ تَذُوبُ yoki أَ تَذُوبُ deyishimiz mumkin. «Uni yolg'onchi deb o'ylayapsanmi?» demoqchi bo'lsak, أَ تَظُنُّهُ deyishimiz kerak. Bu o'rinda لَ تَظُنُّهُ deyishimiz xato bo'ladi.

4-farq: أَ ba'zida savol uchun emas, balki inkor (التوبيخ), ta'ajub (التعجب) va tanbeh (التوبيخ) uchun ishlatiladi, لَ esa bu ma'nolarda kelmaydi. Masalan: «Sen ham talabamisan?!» deb hayratimizni ifoda etmoqchi bo'lsak, أَ أَنْتَ deyishimiz kerak. Lekin shu vaziyatda لَ أَنْتَ deyish fasih sanalmaydi.

5-farq: لَ ba'zan أَ ma'nosida keladi, أَ esa bunday ma'noda kelmaydi. Masalan: «Vaqtda tugab bo'ldi» (مَا تَغَابَ لَ) ma'nosini nazarda tutib لَ deyish mumkin, lekin أَ أَنْتَ deb bo'lmaydi.

6-farq: أ dan oldin إِنَّ kelishi mumkin, lekin هَلْ kelmaydi. Masalan: «Sen tirishqo-qmisan?» gapini $\text{هَلْ مَجْتَهِدٌ إِنَّكَ هَلْ}$ tarzida aytish to'g'ri emas.

7-farq: Shart yuklamalasi أ dan keyin kelishi mumkin, هَلْ dan keyin esa kelishi mumkin emas. Masalan: «Qaytsam sen ham qay-tasanmi?» gapini $\text{هَلْ رَجَعْتَ رَجَعْتُ إِنَّ}$ tarzida aytish xato.

8-farq: هَلْ fe'lga أ dan ko'ra ko'proq bog'lanib qolgan, ya'ni هَلْ dan keyin aslida fe'liy jumla kelishi kerak. Shuning uchun jumlaning bir so'zning e'robini o'zgartirish bilan fe'liy yoki ismiy qilish imkoniyati bo'lsa, هَلْ dan keyingi so'zni fe'liy jumlagamoz e'robda aytish shart bo'ladi. أ da esa bu holat afzaldir, shart emas. Masalan: «Zaydni urding») — ismiy jumla. Lekin «Zaydni urding») desak, gap fe'liy jumlagamoz e'robda aytish shart bo'ladi. Shunda هَلْ jumlasida هَلْ ni mansub qilib aytish vojib, biroq marfu' qilib aytish ham joiz.

9-farq: هَلْ dan oldin harfi atf kelishi mumkin, أ dan oldin esa kelmaydi. Masalan: «Borasanmi? Qaytsanmi?» deymiz, biroq atf kelishi demaymiz.

10-farq: Yuqoridagi farqlardan ko'rishimiz mumkinki, أ ni ishlatish doirasi هَلْ nikidan kengroq. Shuning uchun istifhomda أ asl, هَلْ esa uning bir bo'lagi (الفرع) sanaladi.

Hamza doim ham haqiqiy so'roq ma'nosida kelmaydi. Ko'p hollarda «tasviya» vazifasini bajaradi. «Tasviya» — haqiqiy savol ma'nosida ishlatilmay, bir-biriga muqobil ikkita jarayon teng bo'lib qolganini ifodalovchi «hamza» bo'lib, u «tasviya hamzasi» (التسوية همزة) deb ataladi.

Ushbu hamzadan oldin سواء — «baribir», أ — «bilmayman» — «parvo qilmayman» kabi lafzlar kelishi kerak. Masalan: «Darsni tushundingmi yo tushunmading — baribir» — «Bu to'g'rimi yo xato — bilmayman». أ — «Meni maqtaysanmi, yomonlaysanmi — bu bilan ishim yo'q».

Mana shu turdagi «hamza» (أ) masdar harflaridan biri bo'lib, undan keyin doim أ harfi keladi. Masalan: «Tushunyap-

sanmi yoki tushunmayapsanmi — menga farqi yo'q (aslida: «men uchun tengdir»)), degan gap nahvda ko'rinishida taqdir qilinadi.

Shunga ko'ra, سواء — xabari muqaddam, أ esa masdar muavval (فهمك) bo'lib, muftado muaxxar sanaladi.

Ibn Hishom «Mug'nil labib» asarida Abu Zuayb Huzaliy baytini tasviya hamzasi uchun shohid qilib keltiradi:

لأمرها إني القلب إليّ دعياني
طلابها أرشد أدري فما سمعي

Baytning ma'nosi: «Qalbim meni u tomon boshladi, zero men qalbim amriga quloq tutaman. Lekin u qizni istamoq to'g'rimi (yo xato) — bilmayman».

Nahv olimlari mana shu baytni dalil qilib, hamza ning so'roq ostiga olinayotgan ikkinchi tarafi أ bilan birga tushirib yuborilishi mumkin ekanini aytganlar. Bayt aslida: «طلابها أرشد — «Uni istamoq to'g'rimi yo xato — bilmayman», bo'lishi kerak edi. Ammo bu ma'no shundoq ham ma'lum bo'lgani uchun أ aytilmadi.

Shuni aytish kerakki, أ harfi aytilgan taqdirda hamza ni gapdan tushirib yuborish mumkin. Bunga Umar ibn Abu Rabi'a Maxzumiyning mana bu baytlari dalil bo'ladi:

جمرت حين معصم منه لي بدا
ببنان زيننت خضيب وكف
- داريا كنت وإن - أدري ما فوالله
بثمان أم الجمر رمين بسبع

Baytning tarjimasi: «Jamarotda tosh otganda qo'lining bilak uzuk taqadigan yeri menga ko'rinib qoldi. Xina surtilgan, barmoqlari zeb berib turgan kaftlari ham (ko'rindi). Allohga qasamki, sal oldin bilib turgan bo'lsam ham, shu on bilmay qoldim — yettita tosh otdimi yoki sakkizta?!».

Baytning mazmuni to'g'ri chiqishi uchun بسبع أ iborasini بثمان أ aljamer ramini deb taqdir qilish lozim.

So'roq hamzasi أ harfi aytilmasa, tushirib yuborilishi mumkin. Bunga shoir Kumayt ibn Zaydning bayti misol bo'la oladi:

أطرب البيض إلى شوقاً وما طربت
يلعب الشيب وذو مئذني لعباً ولأ

«Jo'shib ketdim, biroq men oqbadanlar sog'inib jo'shmagayman. Ko'ngilxushlikdan ham (sevinmasman), axir (men kabi) sochi oq (qariya) ko'ngilxushlik qilarmi!?».

Baytdagi الشَّيْبُ أَوْذُو لَعِبِ الشَّيْبِ وَذُو لَعِبِ tarzida tushuniladi.

Hamza ba'zida inkor ma'nosida ham ishlatiladi. Masalan: هَذَا عَلَى بَقَادِرِ أَلَسْتُ — “Men bunga qodir emasmanmi?”. Biz bu gapni: “Yo'q, albatta, qodirman!” deb tushunamiz. Ayrim hollarda ushbu inkor dakki aralash tusda bo'ladi: أَتَحَدِّثُ — “Dars payti gaplashyapsanmi?”, ya'ni: “Bo'ldi, gaplashma!”.

Yana hamza o'zidan keyingi gap tasdig'ini o'rtaga chiqarish uchun ham ishlatiladi. Bu “taqrir” deb nomlanadi. Masalan: زَيْدًا ضَرَبْتُ أُنْتُ — “Zaydni sen urdingmi?”. Go'yoki so'zlovchi: “Tan ol!” demoqchi bo'ladi.

O'zbek tilida bo'lganidek, hamzadagi so'roq buyruq yoki ta'ajjub ohangida aytilishi ham mumkin. Masalan: أَكُنْتُ بَتَمٌ — “Yozdingizmi?” degan gapdan maqsad, aslida: “Yozinglar!” bo'ladi. Shuningdek: الشَّمْسُ خَسُوفٌ أَشَاهَدْتُ — “Quyosh tutilishini ko'rdingmi?” gapi hayrat ustiga qurilganini gap oqimidan ilg'ab olish mumkin.

Ba'zan bir ishning amalga oshishi intiqlik bilan kutilayotganini bildirish uchun ham hamza ishlatiladi. Masalan: أَنْتَ هِيَ قَدْ الدَّرْسَ فَإِنَّ أَنْتَ حَدِّثُ — “Gaplashsak bo'lar endi, dars tugadi-ku axir?!”. Hamzaning ushbu ma'nosiga “istibto” deyiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, arab tilidagi istifhom vositalari shaklan o'xshash ko'rinsa-da, ularning grammatik maqomi va uslubiy yuklamasi o'zaro sezilarli darajada farqlanadi. “Hal” ma'lum sintaktik chegaralar bilan bog'langan vosita bo'lib, asosan hukmni tasdiqlash yoki inkor etishni aniqlashtirishga xizmat qiladi. Hamzatul-istifhom esa ma'no doirasining kengligi, turli gap tuzilmalari moslashuvchanligi va balog'iy ohangni yuzaga chiqarish imkoniyati bilan ajralib turadi. Shuningdek, hamzaning tasviya, taqrir, inkor va boshqa ma'no qatlamlarida kelishi uning nafaqat grammatik birlik, balki kuchli uslubiy vosita ekanini namoyon etadi. Bu jihat arab tilidagi matnlarni, ayniqsa Qur'on oyatlari va adabiy namunalardagi nozik ma'no farqlarini anglashda muhim

ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, “hal” va hamzaning qo'llanish qonuniyatlarini puxta o'zlashtirish arab tilining sintaktik tizimini chuqurroq tushunishga, so'roq gaplarning mazmuniy soylarini to'g'ri talqin etishga hamda ilmiy va amaliy faoliyatda xatolarning oldini olishga xizmat qiladi. Mazkur masalaning izchil o'rganilishi arab tilshunosligida istifhom nazariyasini yanada boyitadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abul Fath Usmon ibn Jinniy. Al-Luma' fiy al-lug'o al-arobiyya. Dar Majdalaviy li an-nashr. Ummon – 1977, 177 b.
2. Abu Muhammad Abdulloh Jamoluddin Ibn Hishom Ansoriy. Mug'niy al-labib 'an kutub al-a'ariyb. Dar al-Lubab. Bayrut – 2021, 953 b.
3. Hasan ibn Qosim Murodiy. Al-jana ad-daniy. Dar al-kutub al-ilmiyya. Bayrut – 1992, 684 b.
4. Ahmad ibn Abdunnur Molaqiy. Rosf al-mabaniy. Dar al-qolam. Damashq – 2002, 576 b.
5. Ibn Burhon Ukbary. Sharh al-Luma'. Al-majlis al-vatoniyy li as-saqofa va al-funun va al-adab: qism at-turos al-arobiyy. Quvayt. – 1984, 879 b.
6. Shayx Mustafo Muhammad Arafa Dasuqiy. Hashiya ad-Dasuqiy 'ala Mug'niy al-labib. Dar al-kutub al-ilmiyya. Bayrut – 2000-yil, 560 b.
7. Bahouddin Abdulloh ibn Abdurrahmon ibn Abdulloh ibn Aqiyl. Sharh Ibn 'Aqiyl a'la Al-fiyya ibn Malik». Muassasat ar-risala nashiun. Bayrut – 2021-yil, 608 b.
8. Abul Qosim Abdurrahmon ibn Abdulloh Suhayliy. Nataij al-fikr fiy an-nahv. Dar as-Salam. Qohira – 2018, 517 b.